

O'ZBEKISTON SANOATIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH

Vasiljonova Nodira Otabek qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur tezisdagi O'zbekiston sanoatida yashil texnologiyalarni joriy etish zarurati, ularning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshlikka ta'siri, shuningdek, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi va amaliyotlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yashil texnologiyalarning barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, raqobatbardoshlik, ekologik innovatsiyalar.

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish jarayonida sanoat sohasi yetakchi o'rinni egallaydi. Ammo bugungi kunda iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirish uchun ekologik toza, yashil texnologiyalarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayon ekologik inqirozni yumshatish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish kabi qator muhim omillarni o'z ichiga oladi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoatda yashil texnologiyalarni keng joriy etish orqali resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejamkorligini ta'minlash mumkin. Masalan, Germaniyada "Industry 4.0"¹ strategiyasi doirasida yashil texnologiyalar sanoatning barcha tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv nafaqat energiya sarfini kamaytirish, balki raqobatbardoshlikni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda sanoatda yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori² O'zbekistonning ekologik barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va xalqaro ekologik standartlarga moslashish yo'lidagi muhim qadamidir. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida

¹ Industry 4.0 and Digital Transformation // Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action (BMWK) URL: <https://www.bmwk.de/Redaktion/EN/Dossier/industrie-40.html>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4477-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 06/24/149/0772-son

20 foizga oshirish kutilgan. Shunday bo'lsa-da, biz ushbu jarayonni yanada jadallashtirishimiz lozim. Bu jarayonda quyidagi asosiy yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

1. Energiya samaradorligini oshirish. Sanoatda energiya iste'molini optimallashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi. Masalan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish O'zbekistonda mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

2. Chiqindilarni qayta ishlash. Sanoat chiqindilarini kamaytirish va ularni qayta ishlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Masalan, metallurgiya va kimyo sanoatida chiqindilardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish ekotizim barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. O'zbekiston sanoatida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kabi innovatsion yechimlarni qo'llash energiya tejamkorligi va ekologik xavfsizlikni oshiradi.

4. Davlat siyosatini takomillashtirish. Yashil texnologiyalarni kengaytirish uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlarni joriy etish zarur. Bu jarayonni qo'llab-quvvatlashda qonunchilikni takomillashtirish ham muhimdir.

5. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Rivojlangan mamlakatlar bilan texnologik hamkorlik qilish, ularning ilg'or tajribasini o'rganish va sanoat tarmoqlariga integratsiya qilish orqali samaradorlikka erishish mumkin.

Yashil texnologiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorlikni ham oshiradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish orqali sog'lom ekologik muhitni yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilash mumkin. Shuningdek, ushbu texnologiyalar xalqaro bozorlarda O'zbekiston mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yashil texnologiyalarni joriy etish O'zbekiston sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda, xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishda va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy qilish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi orqali O'zbekistonda yashil sanoatni rivojlantirishga erishish mumkin. Mazkur yo'nalishda strategik rejalashtirish va izchil harakatlar olib borilsa, mamlakatimiz sanoati barqaror rivojlanish va xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli raqobatbardosh iqtisodiyotga ega bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Industry 4.0 and Digital Transformation // Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action (BMWK)

1. URL: <https://www.bmwk.de/Redaktion/EN/Dossier/industrie-40.html>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4477-son Qarori //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 06/24/149/0772-son